

## Ma'naviy Yetuk Barkamol Avlodni Tarbiyalashda Tarix Fanining Tutgan O'Rni Va Ahamiyati

Akmaljonov Akbarjon Akmaljon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti Tarix yo'nalishi  
talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Tarix fanini o'rgatish uchun barcha imkoniyatlarning yartilganligi va Mustaqillikka erishgandan so'ng o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini o'rganish, undan xalqning bebaho manba sifatida foydalanishga keng yo'l ochilganligi va Ma'naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazinasini va taraqqiyot manbai hisoblanishi haqida keng fikr va mulohazalar yuritiladi va bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxs, Tarix fani, ma'naviy merosi.

### KIRISH

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kundan boshlab ijtimoiy davlat qurilmoqda. Mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab milliy tarixni anglash, ming yillar davomida shakllangan o'zbek davlatchilik tarixini to'g'ri tahlil etish davlatimiz siyosatining muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda tarix so'ziga qisqacha izoh berishni lozim deb topdik. Sababi o'rganilayotgan so'zning ma'nosini bilmasdan o'rganish ko'r-ko'ro'no o'rganish hisoblanadi. **Tarix** (arabcha: التاريخ, o'tmish; davr; vaqt, era; sana) – o'tmish voqealar haqida axborot ochish, yig'ish, tartiblashtirish va namoyish etish bilan shug'ullanuvchi darslik. Tarix bilan shug'ullanuvchi olimlar tarixchilar, deb ataladi. Tarix fani voqealar ketma-ketligini tahlil etadi, ularning sabab va samaralarini tizimlashtiradi.

<sup>1</sup>Tarix fani – insoniyatning butun o'tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo'lgan voqea-hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda o'rganadi. Tarix fani ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, san'atshunoslik va boshqalar) tizimining tarkibiy qismi. Tarix fanining bu guruhdagi o'rni uning tadqiqot predmeti va usullari bilan belgilanadi. Turli ijtimoiy va gumanitar fanlar jamiyat hayotining alohida jihatlarini o'rgansa, tarix fanining tadqiqot ob'yekti – aholi, jamiyat, mamlakat, davlat hayotining o'tmishi va hoziri haqidagi faktlarni yig'ish, taxlil qilish, to'plangan bilimlarni ma'lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan umumlashtirishdir. Tarix fani o'tmishda sodir bo'lgan jarayon va hodisalar orasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantig'i va ma'nosini ko'rish imkonini beradi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tarix tadqiqotlari natijalariga tayanadi. Fanlararo yondashuv jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirib, o'tmishni va hozirni anglash orqali jamiyat rivoji istiqbolini ko'ra bilishdek muhim vazifani xal qiladi.

Tarix fani asrlar davomida qo'lyozma asarlarda ifodalangan maishiy hayot, voqea-hodisalar, tarixiy personajlar va shaxslar haqida hikoya qilishdek oddiy bayonchilikdan, muayyantarixiy kontekstda tarixiy hayot yo'lining shakllanishi, bosqichlari va umumiy qonuniyatlarini aniqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va nazariy xulosalar chiqarish kabi murakkab ilmiy yo'lni bosib o'tdi. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini

<sup>1</sup> Professor Richard J. Evans. „The Two Faces of E.H. Carr“. History in Focus, Issue 2: What is History?. University of London (2001).

o'rganish, undan xalqning bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. Ma'naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazinasi va taraqqiyot manbai hisoblanadi. Aynan ushbu ma'naviy va mafkuraviy asosni mustahkamlash hamda rivojlantirishda tarix fani alohida ahamiyatga egadir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek "...tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasorati tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda". I.Karimov tarixiy xotira to'g'risida fikrini davom ettirar ekan – "Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi," - deya haqli ravishda qayd etgan. <sup>2</sup>Yoshlarimizni Vatan tarixi bilan doimo mukammal tarzda qurollantira borsakkina, kelajagi buyuk davlatni qura olamiz.Hozirgi paytda yuz berayotgan globallashuv jarayoni va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab etadi. Dunyo davlatlari orasida O'zbekiston Respublikasida birinchilardan bo'lib umumbashariy tavsifga ega mazkur muammoni hal etishga doir konseptual-nazariy asoslar yaratildi va tizimli ravishda amaliyotga tatbiq etib borilmoqda. Mazkur ezgu maqsadni hayotda o'z isbotini topishda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ushbu ezgu ishlarning davomi sifatida esa 2016-yildan mamlakatimizda tub o'zgarishlarni yorqin misol sifatida ko'rsatish mumkin. Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq avvalo ma'naviy birlashuvi, milliy g'oyasi bilan yuksalgan. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g'oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda bu borada qator qarorlar qabul qilindi. Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisi Prezident ekani belgilab qo'yildi. Kengashning hududiy bo'limlariga mas'ullik hokimlar zimmasiga yuklatildi. Bu o'zgarish ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davlatimiz siyosatida yanada yuksak o'ringa ko'tardi.

- Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir, – dedi Shavkat Mirziyoyev. – Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat.
- Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan, – dedi davlatimiz rahbari.

Ma'lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti. Kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda.

Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab yashash zarur.Davlatimiz rahbari loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini, bugun uchrayotgan ijtimoiy muammolarni kamaytirish uchun nuroniylar tarbiyasi, jamoatchilik nazorati yetishmayotganini ta'kidladi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, davlatimizda ta'limning, xususan, tarix ilmining rivojlanishi davlat siyosatining asosiy e'tibor markazida hisoblanadi.

---

<sup>2</sup> Karimov I ., „Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz“ [ "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", 7j., tarix, 1999;

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki bugungi kunga kelib butun dunyoda siyosiy-iqtisodiy keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, insoniyatning manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti. Kundan kunga jinoyatning turi ortib bormoqda Kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar insoniyatni jumbushga keltiryabdi. Manashunday tahlikali vaqtda biz yoshlar o'z vatanimiz tarixini chuqur o'rganishimiz va o'rganish jarayonida milliy qahromonlarimizni, ota bobolarimizni o'sib kelayotgan yosh avlodga namuna sifatida ko'rsata bilishimiz kerak.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Professor Richard J. Evans. „The Two Faces of E.H. Carr“. History in Focus, Issue 2: What is History?. University of London (2001).
2. Karimov I ., „Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz“ [\"Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q\"], 7j., tarix, 1999;
3. Юсупов, Х. Путеводитель по археолого-архитектурным памятникам Ташаузской области. Ашхабад, 1989 — 40 bet.
4. Itchan Kala, UNESCO World Heritage Centre.
5. „Toshhovli saroyi“. *Khivamuseum.uz*. Ichan Qal'a davlat muzey qo'riqxonasi.
6. Mamadaliyev Xushnudbek. Farg'ona vodiysi shaharlari tarixi(XIX – XX asr boshlari). «Fan ziyosi» nashriyoti, 2022 — 29 bet.
7. Ш. ВОҲИДОВ. КУКОН ХОНЛИГИДА ТАРИХНАВИСЛИК. Тошкент Akademnashr 2010 — 83-85 bet.